



**TURKIY TILLAR BOYLIGINI KASHF ETUVCHI ASAR HAMDA
OLIMLARNING “DEVONU LUG’ATI-T-TURK” ASARI BO’YICHA
QILGAN ILMIY ISHLARI**

Bahodirova Marjona Ilhom qizi

marjonab77@gmail.com

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs

Annotatsiya. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug’ati-t-turk” asari. Qoshg'ariy asarni 1074-yilda yozib tugatgan. Asarning eng muhim jihatlaridan tilshunoslikka atab yozilgan. Bu asar faqat tilshunoslik yo'nalishi bilan cheklanib qolmasdan, balki adabiyotga oid materiallar va Markaziy Osiyodagi qabilalar tarixini ham o'z ichiga olgan biri unda sof turkona so'zlarning ishlatilganidir. “Devoni lug’ati-t-turk” asari turkiy adabiyotda juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu devon bir necha marotaba yurtimizda ham nashr qilingan. Xususan, ilk marta SSSR davrida Solih Mutalliboyev tomonidan tarjima qilingan. Ushbu maqola “Devonu lug’ati-t-turk” yaratilish tarixi hamda olimlarning ilmiy ishlariga qaratilgan.

Annotation. "Devonu Lug'ati-t-Turk" by Mahmud Kashgari. Kashgari finished the work in 1074. Linguistics is one of the most important aspects of the work. This work is not only limited to the direction of linguistics, but also includes materials related to literature and the history of tribes in Central Asia. It uses purely Turkic words. The work "Devoni Lug'ati-t-Turk" is of great importance in Turkish literature. This book has been published several times in our country. In particular, it was translated for the first time during the USSR by Salih Mutalliboyev. This article focuses on the history of the creation of "Devonu Lug'ati-t-Turk" and the scientific work of scientists.



Аннотация. «Девону Лугати-т-Тюрк» Махмуда Кашгари. Кашгари завершил работу в 1074 году. Языкознание является одним из важнейших аспектов работы. Эта работа не ограничивается только направлением языкознания, но включает и материалы, связанные с литературой и историей племен Средней Азии. В ней используются чисто тюркские слова. Произведение «Девони Лугати-т-Тюрк» имеет большое значение в турецкой литературе. Эта книга несколько раз издавалась в нашей стране. В частности, его впервые во времена СССР перевел Салих Муталибоев. В данной статье основное внимание уделяется истории создания «Девону Лугати-т-Тюрк» и научной деятельности ученых.

Kalit so'z: Devon, urug',termin,qabila, Mahmud Qoshg'ariy, turkona, atama, til, tom, Sovet Ittifoq,grammatik asar,Fanlar akademiyasi,S.Mutalliboyev,fe'llar izohi.

Keywords: Devon, tribe, term, tribe, Mahmud Kashgari, Turkana, term, language, roof, Soviet Union, grammatical work, Academy of Sciences, S. Mutalliboev, explanation of verbs.

Ключевые слова: Девон, племя, термин, племя, Махмуд Кашгари, Туркана, термин, язык, крыша, Советский Союз, грамматическая работа, Академия наук, С. Муталибоев, объяснение глаголов.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari o'zbek tilshunosligi fanini boshlab berdi.U bu asari ustida uzoq yil ishlagan. Qoshg'ariy Yuqori Chindan tortib butun Movaraunnahr, Xorazm, Farg'ona va Buxaro qadar cho'zilgan keng hududni kezib chiqib, bu yerda yashagan qabilalarning turmush tarzini,turar joylarini,tillarini o'rgangan. Mahmud Qoshg'ariy XI asrning 2-yarmida lug'at yozish ibtidosini boshlab bergan ya'ni aynan mana shu asrda "Devoni lug'atit turk" asarni yozgan.Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik ,tarixiy-etimologik lug'atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi asardir. Bu asar jahon tilshunos olimlari e'tiborini tortgan qadimiy asarlardan biridir.Asar faqat lug'at



yoʻzish bilan cheklangan desak yanglishgan boʻlamiz, negaki unda oʻsha davrda yashagan xalqlarning turmush tarzini va madaniyatini ham yoritib bergan.Qoshgʻariy haqidagi maʼlumotlar ham aynan uning asarlari orqali bizgacha yetib kelgan.

“ Devonu lugʻatit turk” asari 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.U uch tomndan iborat boʻlib, 1915-1917-yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan.Olim S.Mutalliboyev asar tarjimasini ustida samarali ishlab,uni 1960-1963-yillar davomida uch tomnda oʻzbek tilida nashr qildirdi.

Mahmud Qoshgʻariyning asari kirish va lugʻat qismidan iborat.Muallif asarning kirish qismida “Devonu lugʻatit turk”ning yaratilish sabablari,oʻz ish uslubi,asarning tuzilishi,turkcha soʻzlarning tuzilishida qoʻllanadigan harflar,turkiy qabilalarning bayoni,turk tilining xususiyatlari, tilda va lahjalarda boʻladigan farqlar haqida aytib oʻtadi. Asarning lugʻat qismida 7500 soʻz sakkizta boʻlimga ajratib izohlanadi.Mahmud Qoshgʻariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalangan.

Shuni ham aytish joizki, turkiy qabila va xalqlarning eng qadimgi ogʻzaki adabiy yodgorliklarini oʻrganishda “Devonu lugʻatit turk”dagi adabiy materiallar katta ahamiyatga ega.Asardagi ogʻzaki adabiyot namunalari koʻpi mavsum qoʻshiqlari va peyzaj lirikasi janrlariga kiradi.Bular qadim zamonlardagi kishilarning tabiat hodisalari haqidagi tushunchasi va bu hodisalarga munosabatini ifodalaydi.

Asardagi soʻzlarga nazar tashlasak , ularning sof turkona ekanligini tezda fahmlaymiz.Aynan shuning uchun ham u turkiy tillar oʻtmishini yorituvchi oʻxshashi yoʻq asar hisoblanadi. Mahmud Qoshgʻariy asaridan oʻrin olgan turkiy soʻzlar bugungi kunda ham saqlanib qolgan boʻlib, tilimizda unchalik oʻzgarmasdan shundayligicha ishlatilib kelinmoqda.

“Devonu lugʻoti-turk” turkiy soʻzlarning arabcha izohli lugʻati boʻlgani uchun ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga molikdir. Uni har tomonlama tadqiq qilish turkiy



xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining tarixini, urfodatlarini, so'z boyligini, adabiy me'yorini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Bizgacha faqat bitta qo'lyozmasi yetib kelgan "Devonu lug'oti-t-turk" turkshunoslikka oid asarlar ichida eng qadimiyliги bilan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bu qadimiy qo'lyozmaning Ahmad Rifat tomonidan chop etilishi va nashrlarining yuzaga kelishi Mahmud Qoshg'ariyni va uning mazkur asarini sharqshunoslarga tanitdi.

Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslik tarixida ham, lug'atshunoslik tarixida ham juda qimmatli ishlar qilgan olim sanaladi. Uning "Devon"i arab tilidagi turkiy tilni o'rganishga mo'ljallangan lingvistik lug'at va grammatika kitobdir. Ma'lumki, "Devon"da so'zlar berilish tartibi alifboga asoslangan hamda so'zlar arabchada berilib, turkiy tilda izohlanadi. Buni muallif gapi bilan aytganda: "Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi otdek teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatidan ham yaxshi edi". Ko'rinadiki, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilning XI asrdagi mavqeiga alohida e'tibor beryapti.

"Devonu lug'oti-t-turk" asari arab tilidan ilk tarjimasi turk tiliga qilingan. Shuningdek, asarning boshqa tillarga ham to'liq tarjimalari mavjud: o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qozoq, ingliz, nemis, xitoy, rus va eron tillariga ham tarjima qilingan. Lug'at arab tilidan birinchi marta turk tiliga Basim Atalay tomonida tarjima qilinganidan keyin, asarning ikkinchi to'liq tarjimasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti adabiyotshunos olimi Solih Mutallibov boshchiligida amalga oshirilgan. Olim "Devon"ni o'zbek tiliga tarjima qildi va uni 1960-1963-yillarda uch jildda Toshkent shahrida nashr ettirgan. Ushbu tarjima ko'plab tadqiqot ishlari uchun asos vazifasini o'tagan. 1967- yilda G'ani Abdurahmonovning ishtiroki va rahbarligida "Devonu lug'oti-t-turk"ning "Indeks lug'ati" e'lon qilindi. "Indeks"ning oxirida "Devon"dagi onomastik, birliklar, maqol va matallar ilova qilingan. Bundan tashqari, Q.Mahmudov tomonidan qilingan "Grammatik ko'rsatkich" nomli va G'.Abdurahmonov va Sh.Shukurovlar tomonidan tayyorlangan. "XI asr eski turkiy



tilning grammatik ocherki” nomli ishlari kiritilgan. Lekin ushbu tadqiqotlargacha o‘zbek tilshunosligida “Devonu lug‘oti-t-turk” asarini tadqiq qilish uchun zalvorli qadamni Abdurauf Fitrat tashlagan edi. U o‘zining bir qancha ilmiy kitoblarida “Devonu lug‘oti-t-turk” asariga to‘xtalib o‘tadi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning ilmiy salohiyati, asarning ahamiyati haqida o‘zining “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarida alohida to‘xtalib o‘tadi. Asarning “Bir-ikki so‘z” nomli kirish qismida Fitrat quyidagi fikrlarni beradi: “Sarf”imning boshlang‘ichida yozganim kabi: xoqoni turkchasi yoki turkcha atalg‘an mana shul adabiy shevaning besh asr keyingi shakli chig‘atoychadir. Shuning uchun biz o‘zbek adabiyotimizning tarixi uchun materiallar izlar ekan, chig‘atoychag‘a borib to‘xtalmaymiz, chig‘atoychaning onasi bo‘lg‘an haligi adabiy shevagacha borishg‘a majburmiz. Bu shevaning eng eski namunalarini bizga “Devonu lug‘oti-t-turk” kitobi beradi. Mahmud Qoshg‘ariy asarining boshlang‘ichida o‘zini mana shunday deb tanitadir: “Men turklarning eng to‘g‘ri, eng ochiq gapirgani, juda to‘g‘ri onglag‘ani, tubchaglari, boturlari bo‘la turib, shaharlarini, tolalarini aylanib ko‘rib chiqdim. Turkning, turkman, o‘g‘uzning, chigil, yag‘mo, qirg‘izning so‘zlarini, qofiyalarini yaxshi o‘rgandim”, – deydir”.

“Devonu lug‘oti-t-turk” asarning tarjima ishlari S.Mutallibov tomonidan amalga oshirildi. Ushbu tarjimada “Devon”ning arabcha va turkcha nashriga ilmiy munosabat, onomastik birliklar, urug‘ va qabilalarning tili haqida ham ilmiy tahlillar berilgan. Bunday ishlar uchun professorning 40 yillik tarjimonlik va ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘rsatkichi hisoblanadi. “Devonu lug‘oti-t-turk” asarining leksikografik xususiyatlariga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan.

O‘tgan asrda bu asar ustida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq u davrda ilmiy tahlillar hamda izohlar bo‘yicha cheklovlar bo‘lgan. Shu sababli ham o‘sha asrda devonning to‘laqonli mohiyati ochib berilmagan. Sobiq Ittifoq davrida chop etilgan asarlar ilmiy bartaraflikni saqlash kerak edi.



Sovet Ittifoq davrida 1963-yilda Solih Mutallibov “Devonu lug’oti-t-turk” asarini o’zbek tiliga tarjima qilgan. Devon 3 tomdan iborat bo’lib, har bir kitob alohida izohlar bilan ta’minlangan. Kitobda uchraydigan ayrim so’z va tushunchalarga o’z o’rnida izoh berib o’tiladi. Izohlar ham Solih Mutallibov tomonidan tuzilgandir. Asar O’zbekiston SSSR Fanlar akademiyasida nashr etilgan.

“Devonu lug’oti-t-turk” asari o’z ichiga ko’plab ma’lumotlarni qamrab olgan. Bu asar bir nechta tomlarga bo’linadi:

1. “Devonu lug’oti-t-turk” asarning I tomi 1960-yilda nash etilgan. Kirish qismida

“XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari” haqida ma’lumotlar keltirilgan. So’ng esa devon haqida ma’lumotlar keltirilgan. Asosiy qismda “Devonu lug’oti-t-turk” asari keltirilgan. Qoshg’ariy bu qismda kitobni 8 asosiy bo’limga chekladim deydi:

1. Hamzalik bo’limi.
2. Solim bo’limi.
3. Muzaaf bo’limi.
4. Misol bo’limi.
5. Uch harfli so’zlar bo’limi.
6. To’rt harfli so’zlar bo’limi.
7. G’unnalilar bo’limi.
8. Ikki undosh qator kelgan so’zlar bo’limi.



Har bir bo'lim otlar va fe'llar tarzida ikki qismga ajratilgan. Otlarni oldin, fe'llarni esa otlardan keyin o'z sirasiga qarab, boblarga ajratib, o'z o'rnida oldinma-кетин joylashtirgan. Asar oxirida esa izohlar keltirilgan.

2. “Devonu lug'oti-t-turk” asarning II tomi 1963-yilda nash etilgan. Devonning bu tomida asosan fe'llar izohlangan. Shuning bilan birga unda fe'l qoidalari, fe'llarning yasalishi, fe'l boblari, fe'l turlari va boshqalar mukammal tushuntirilgan. Shuning uchun bu tom o'ziga xos alohida ahamiyatga egadir.

3. “Devonu lug'oti-t-turk” asarning III tomi 1963-yilda nash etilgan. Bu tomida asosan y harfi boshlangan so'zlar, shu bilan birga, oldingi tomlarga kirmagan ayrim so'zlar gurupasi izohlangan. Mahmud Qoshg'ariy o'sha davrdagi morfologiya, fonetika, leksika, dialektologiya haqida ma'lumot beradi. Bu asar birinchi marta tuzilgan lug'at kitobi sifatidagina emas, shu bilan birga, birinchi marta yaratilgan grammatik asar sifatida ham benihoyat muhimdir.

“Devonu lug'oti-t-turk” asari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlardan biri bo'lmish H.Hasanov o'zining “Mahmud Koshg'ariy hayoti va geografik merosi” nomli monografiyasida keltirgan. Ushbu indeks-lug'at A.Rustamov tomonidan o'rganilgan bo'lib, olimning ta'kidiga ko'ra, bu qo'lyozma yurtimizdagi “Devonu lug'oti-t-turk” asari bo'yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug'at hisoblanadi. Bundan tashqari mashhur turkshunos olimlardan G'.Abdurahmonov, S.Mutallibov, X.Ne'matov, Sh.Shukurov, F.Fozilov, E.Umarov, Q.Mahmudov, H.Dadaboyev, Sh.Abdurahmonov, B.Hasanov o'zlarining o'zbek tili tarixiga oid asarlarida “Devonu lug'oti-t-turk” materiallaridan unumli foydalanganlar. 2019-yilda esa S.Normamatov tomonidan “O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarligining o'рни” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan. Ushbu dissertatsiyaning “Davr lug'atchiligi: tarixi, shakllanish jarayoni va manbalari” nomli 2-bobida “Devonu lug'oti-t-turk”ga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, “Devon”ning paydo bo'lishi, asarga asos bo'lgan lug'atlar va shu kabi masalalar yoritilgan. Muallif e'tirof etishicha, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-t-turk” asari eng avvalgi



ikki tilli (turkcha-arabcha) ham tarjima, ham izohli lug‘at bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda aytish kerakki, Mahmud Qoshg‘ariy lingvistik qarashlarining shakllanishi uchun asosiy manba sifatida arab tilshunosligida yaratilgan asarlar, arab tilshunoslari qarashlari xizmat qilgan bo‘lsa, o‘rta asrlardan keyingi tilshunoslik uchun asosiy ilmiy-badiiy manba sifatida Alisher Navoiyning asarlari xizmat qilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari yaratilishi uchun u yashagan davrdan oldin yaratilgan, ayniqsa, arab tilshunosligida yaratilgan ilmiy ishlar, asosan lug‘atlar asosiy ilmiy manba bo‘lgan ekan va o‘rta asrlar lug‘atchiligining shakllanishi uchun “Devonu lug‘oti-t-turk” va XI – XV asrlarda yaratilgan ikki tilli va ko‘p tilli tarjima va izohli lug‘atlar ilmiyamaliy manba vazifasini o‘tagan deyish to‘g‘riroqdir. Bundan tashqari, “Devonu lug‘oti-t-turk”, hozirgi, an‘anadagi, masalan, o‘zbekcha-arabcha, o‘zbekcha-ruscha kabi tarjima lug‘atidan farq qiluvchi alohida lug‘at. Albatta, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”i umumturkiy lug‘atchilikning o‘ziga xos bir namunasi bo‘lsa, keyinchalik, uning ta’sirida yaratilgan, XIII – XIV asrlardan boshlab tuzila boshlagan “Tarjimoni turki va ajami va mo‘g‘uli va forsi”, “Kitob attuhfatuz-zakiyati fil- lug‘atit turkiya”, Abu Hayyonning “Kitobi al-idrok lil-lison al-atrok” davr ehtiyojiga ko‘ra, yangi shakllanayotgan alohida bir turkiy adabiy tilning boshqa tillar bilan munosabatini namoyon qiluvchi o‘zbek lug‘atchiligining yangi namunalari edi. “Devonu lug‘oti-t-turk” tili bilan hozirgi o‘zbek tilini qiyosiy tadqiq qilgan dastlabki olimlardan biri I.Qo‘chqortoyev hisoblanadi. Huddi shuningdek, “Devon”dagi kasbiy terminlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan tilshunoslardan S.Ibragimov va M.Asomiddinovlar asarning leksik xususiyatlarini ochib berganlar. N.Usmonova va M.Abdiyevlar ham asarda qo‘llangan kasb-hunarmandchilik terminlari xususida o‘z fikr mulohazalarini yuritganlar. T.Xo‘jamberdiyev “Devonu lug‘oti-t-turk”dagi hayvonot dunyosi atamalarini tadqiq etib, 1975-yilda mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Zoonimlar mavzusini mustaqillik yillarida B.B.Abdushukurov davom ettirgan. Tilshunos tomonidan XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilida zoonimlar tadqiqiga



bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan va ishda “Devon”da qo‘llangan zoonimlar asosiy manba sifatida tahlil qilingan. Asar leksikasi shakl va ma’no jihatdan ham ma’lum darajada tadqiq etilgan. H.Dadaboyev ilk eski turkiy tildagi antonimlar, T.Sultonov “Devon”dagi omonimlarning etimologiyasi, E.Umarov, O.Anorqulovalar asardagi ayrim omonimlar borasida maqolalar chop ettirganlar.

2021-yilda Farg‘onada “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi ot leksemalarning semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi G.Rozikova tomonidan himoya qilingan. Dissertatsiyada “Devonu lug‘oti-t-turk” asarini lingvistik aspektda o‘rganish, lug‘atda izohlangan leksemalarni so‘z turkumlari bo‘yicha va ot leksemalarni ularning ma’noviy xususiyatiga ko‘ra lingvostatistik tahlil qilish, asardagi ot leksemalarning tarixiy-etimologik jihatlarini ochib berish, ot leksemalarni hozirgi o‘zbek adabiy tili va o‘zbek shevalari so‘z boyligi bilan qiyoslash hamda ot leksemalar doirasidagi ma’no kengayishi, torayishi va ma’noning o‘zgarish hodisalari kabi masalalar yuzasidan atroflicha izlanishlar olib borilgan.

“Devonu lug‘oti-t-turk” asari ilk filologik tadqiqot va turkiy so‘zlar etimologiyasi keltirilgan birinchi qiyosiy lug‘at hisoblanadi. Ayni paytda bu asarni faqat lug‘at deb hisoblash bilan cheklanish to‘g‘ri emas, chunki unda Markaziy Osiyo xalqlarining og‘zaki ijodi namunalariga xos ko‘plab noyob ma’lumotlarni ham kuzatishimiz mumkin. Bu xususiyatlarini esa bir qator tilshunos olimlarning asar yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, “Devon”da keltirilgan maqollar soni yuzasidan ham turli qarashlar mavjud bo‘lib, G‘.Abdurahmonov asarda maqol va matallar soni 291 ta va, shuningdek, 300 dan ortiq she’riy parchalar mavjud ekanligini ta’kidlaydi. H.Boltaboyev asarning qayta nashrida to‘plagan ma’lumotlariga asoslanib, “Devon”dagi maqol va hikmatli so‘zlar ko‘rsatkichi 318 ta ekanligini va ulardan 26 tasi ikki marta, 6 tasi uch marta qayta tilga olinganligi haqida e’tirof etadi. Eng e’tiborga arzirli jihati shundaki, ushbu



maqol va hikmatli soʻzlarning aksariyat qismi hozirgi oʻzbek tilida ayrim oʻzgarishlarga uchragan holda isteʼmolda qoʻllanib kelinmoqda. “Devonu lugʻoti-t-turk”da soʻzlarni izohlash uchun keltirilgan maqollarni atroflicha oʻrgangan bir qator tilshunoslarning tadqiqot ishlari mavjud. Chunonchi, K.Bakirov, F.Qahhorova, Oʻ.Lapasov, Sh.Mahmadiyev, A.Qurbonovlarning maqolalarida “Devon”dagi maqollar haqida fikr-mulohazalari yoritilgan. I.Mirzaaliyevning “Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi ” nomli dissertatsiyasida ham “Devon”ga mansub maqollar tahlili oʻrin olgan. Shu kabi koʻplab olimlarimiz “Devonu lugʻoti-t-turk” asarini puxta oʻrgangan va shu mavzuda koʻplab ilmiy ishlar qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. ДЛТ 1960, I – Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1- том. – Тошкент: Фан, 1960.
2. ДЛТ 1963, II – Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 2- том. – Тошкент: Фан, 1963.
3. ДЛТ 1963, III – Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.
4. ДЛТ 1967 – Девону луғотит турк. Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967.
5. ДЛТ 2017 – Кошғарий, Махмуд. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) / Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
6. Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий ёзма манб алар тилларидаги зоонимлар: Филол. фан. но мз. ...дисс. –Тошкент, 1998.
7. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуна-лари. Нашрга тайёрловчи: О.Ҳамроева. Масъул муҳ аррир: Ҳ.Болтабоев. – Тош- кент: MUMTOZ SOʻZ, 2008.
8. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилининг шакллан иши ва ривожланишида жа- дид маърифатпар варларининг ўрни: Филол.фан.доктори. ...дис с. –Тош- кент, 2019.